

BO'LAJAK TEKNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna

Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv; o'qituvchi; didaktik; muammo; tadqiqot; faoliyat; integratsiyalash; integratsiyalash Yo'nalishlari; integrativ funktsiya; tizimlashtirilgan; ma'lumotlar; ta'lim mazmuni; imkoniyatlar; qiziqish; faoliyat.

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuv qilish masalasi yechimi yoritiladi. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida XXI asr – intellektuallashtirilgan asr ko'rinishini olib bo'ldi. Buni hozirdagi ilm-fan va texnika-texnologiyalar rivojidan yaqqol sezish mumkin. Ular negizida ishlab chiqarilayotgan intellektual tizimlarda ko'plab tizimli yondashuv, innovatsion yondashuv, kreativ yondashuv, ijodiy yondashuv, majmuaviy (komillik) yondashuv, integrativ yondashuv kabi tadqiqot uslublaridan foydalanilmoqda. Bu tadqiqot uslublari ichidan integrativ yondashuvdan ko'proq foydalanilmoqda. Bunga sabab intellektuallashtirilgan asrning ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda albatta ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishga to'g'ri keladi, ya'ni bular asosidagi hosil bo'ladigan-yangilangan ta'lim mazmunini tashkil etishda integratsiyalash jarayoni amalga oshiriladi.

Bu yo'nalishning istiqbolli tomoni shundaki, bunda dunyo miqyosidagi o'qitish tizimlarini texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan integratsiyalashtiriladi, shuningdek, integratsiyalash ta'limni intellektuallashtirish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini yanada mukammallashtirishda nixoyatda zarur.

Respublikamizda intellektual salohiyatli bo'lajak mutaxasislarni tayyoclash masalasi ham davlat ahamiyatiga molik bo'lib, ushbu masalani hal qilishga aloxida e'tibor qilinmoqda. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi — Uzliksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy xizmatlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatini baxolashning xalqaro standartlarini joriy etish vazifasi belgilangan[1]

Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni integrativ yondashuv negizida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish ularga mos innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqarish, shuningdek, ilmiy-metodik ta'minotni tayyorlash ushbu sohaning dolzarb yo'nalishlaridan xisoblanadi. Bunda ushbu sohadagi davlat siyosatini e'tiborga olgan holda tayyorlangan o'qituvchilar mamlakatimiz barcha jabhalarini intellektuallashtirishga munosib hissa qo'sha oladigan mutaxasislar

bo'lib yetishadi.

Shuning uchun ham integrativ yondashuv negizida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashni modernizatsiyalash masalasi qaraladi.

Ushbu muammoni hal etishda dastlab an'anaviy ta'lim tizimiga mos va xos bo'lgan davlat hujjatlari o'rganilib chiqiladi va ulardagi bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy talablar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni modernizatsiyalashga qaratilgan g'oyalar va ko'rsatmaviy fikrlar muammo yechimini hal qilishda etiborga olinib boriladi va ulardagi **didaktik imkoniyatlar** hisobga olinadi. Quyida ularning bazilari haqida to'xtalamiz:

1. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning Davlat ta'lim standartlarining mavjudligi.
2. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid fanlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlarining mavjudligi.
3. Bo'lajak o'qituvchilarni malaka tavsifnomalarining mavjudligi.
4. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejasidagi bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirish mumkinligi va shu kabilar.

Bu ko'rsatilgan oxirgi imkoniyat bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni dastlabki bosqichidanoq integratsiyalashga kuchli e'tibor berish kerakligi talab qilinadi. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi fanlar bloklarining yo'naltirilgan maqsad-vazifalari bor va ularning muammo yechimini hal qilishga yetarligini aniqlab olishga to'g'ri keladi.

O'rganilgan Davlat hujjatlaridagi imkoniyat va shart-sharoitlar bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisini tarbiyalashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirishga bo'lgan dastlabki imkoniyatlar bo'lib hisoblanadi. Shuning bilan birga mazkur yo'nalishdagi dastlabki izlanishlarimiz natijalari bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini intellektual faoliyatga tayyorlashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirish mumkin ekanligini ko'rsatadi. Bu esa bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashni zamon talablarini e'tiborga olgan holda integrative yondashuv asosida amalga oshirishning ahamiyatini yanada oshiradi hamda bunday muammolarning ijtimoiy ahamiyatini ham yanada yuksaltiradi. Va qayd etish mumkinki, tadqiq etilayotgan muammoning o'zi ham Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi istiqbolli dolzarb muammo bo'la oladi.

Shu sababli mazkur tadqiqot ishimizning dastlabki bosqichida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini integrativ yondashuv negizida tayyorlashning pedagogic va psixologik shart-sharoitlari ilmiy-metodik jihatdan asoslanib olindi. Buning uchun bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisini integrativ yondashuv negizida tayyorlashga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonini o'zaro bog'liq bo'lgan mantiqiy ketma-ketligini ilmiy-metodik jihatdan asoslab oldik. Ularni quyidagicha ifodalab oldik.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida **integratsiyalashga** oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Bu birinchi kurslar ta'lim tarbiyasi jarayonida amalga oshiriladi;

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini **integrativ yo'nalishlarni** tanlashga o'rgatish. Bu bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashdagi ikkinchi kurslar ta'lim-tarbiyasi jarayonida amalga oshiriladi;

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini **integrativ yaratish qobiliyatlari** va ular maqsad-vazifalari hamda mazmun-moxiyatini anglab yetishga o'rgatish. Bu bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi uchinchi kurslar ta'lim tarbiyasi davomida amalga oshiriladi;

Yuqorida qayd etilgan bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashga mos didaktik materiallar va ma'lumotlar hamda muammoni yechishga kerak bo'ladigan kreativ axborotlar muhitlari tayyorlanib

olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak. O'zbekiston. 2017 y.
2. Z.Davletsheva. Tikuv buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2017. "Sano standart" nashriyoti.
3. G.M.Anarkulova, G'.M.Abduqodirov, X.T.To'lqinova. Texnologiya ta'limi praktikumi. Darslik. Toshkent 2018 y
4. G.K.Xasanbayeva. Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash. O'quv qo'llanma Toshkent. O'qituvchi. 1990 yil.
5. M.R.Xudoyberdiyeva. Kasb mahorati Darslik T.: Faylasuflar
6. Sh.Sharipov, N.Muslimov. Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. Toshkent 2010.
7. **G.T.Hojikarimova** "Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiya komponentlarini shakllantirish metodikasi" МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ, Илимий-методикалык журнал. № 5 - 2022 жыл. ISSN 2181-7138. <http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz/>
8. **G.T.Hojikarimova** "Социально-педагогические основы формирования креативности учащихся". // Международный научный журнал «Вестник науки» (ежемесячный научный журнал), // № 6 (15) Том 5 июнь 2019 й. Стр 150-154 стр
9. **G.T.Hojikarimova** "Conditions for the development of artistic creatives of students in technology" // Zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari (elektron ilmiy to'plam). №1.2020yil Urganch; Стр 68-74; UDC: 378.1
10. **G.T.Hojikarimova** Use of innovative courses of innovative character in increasing the quality of education and efficiency of education // Жамият ва инновациялар / Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index> 1. – ISSN 2308-4804.
11. **G.T.Hojikarimova** "Supporting innovative approaches in the education system // Academia 10.5958 ISSN: 2249-7137, 2021.
12. **G.T.Hojikarimova** " Fundamentals Of Development Of Creative Abilities Of Students In Professional Training" // The American Journal of Applied Sciences// Volume 3 Issue 01, 2021. 54-57
13. **G.T.Hojikarimova** "Interfaol o'qitish – innovatsiya sifatida" SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-160.101-1076
14. **G.T.Hojikarimova** "Технология фани амалий машғулотларини ташкил этишининг ташкилий шакллари" SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601.94-986
15. **G.T.Hojikarimova** "Bo'lajak Texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasb mahoratini shakllantirishda kreativlik" // Опубликовано в международном научном журнале "Вестник науки". – № 2 (47) т. 2, г. Толятин от 13 февраля 2022 г. Sayt: www.vestnik-nauki.rf; email: vestnik-nauk@ya.ru; УДК 37.
16. **G.T.Hojikarimova** Мутахассислик фанлари ва ишлаб чиқариш интеграцияси замонавий кадрлар тайёрлашнинг инновацион омили сифатида // "SECTORAL RESEARCH XXI: CHARACTERISTICS AND FEATURES III International Scientific and Theoretical Conference". April 22, 2022 | Chicago, USA | Collection of scientific papers «SCIENTIA»